

„OLTIN ZANGLAMAS” ASARIDAGI IBORALAR

Narbayeva Xosiyat

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar fakulteti O‘zga tilli guruhlarda o‘zbek tili ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Iboralar ma‘nosi bir so‘zga teng bo‘lgan leksik birliklardir. Ushbu maqolada Shuhratning „Oltin zanglamas” asarida keltirilgan iboralar uch guruhga bo‘lindi va ularga asardan misollar keltirildi.

Kalit so‘zlar: Frazeologiya, fraza, ibora, Shuhrat, „Oltin zanglamas” romani, so‘z birikma.

Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyoz, Faculty of Turkic Languages, 2nd level student of Uzbek language education in foreign language groups

Abstract: Phrases are lexical units whose meaning is equal to one word. In this article, the expressions mentioned in Shuhrat's "Golden Rust" are divided into three groups and examples from the work are given.

Key words: Phraseology, phrase, expression, Fame, "Golden Rustless" novel, word combination.\

Adabiyot yashasa millat yashaydi. Har bir adib o‘z asarlarida millat dardini kuylamas ekan uning asari hech qachon kitobxonning qalbidan joy olmaydi. Badiiy asar eng yaxshi til ekanligini ta‘kidlaydi o‘zbek xalqining sevimli yozuvchisi O‘tkir Hoshimov. Haqiqatan ham badiiy asarda adabiy til ham sheva ham bo‘ladi. Asar orqali xalq maqollari, topishmoqlari va iboralari ham yetib keladi. Yurtimizning barcha tarixi ham asarlar orqali yetib kelgan. Maqollar xalqning necha yillik tajribalari natijasida vujudga keladi. Asar maqol, iboralarga qanchalik boy bo‘lsa uni o‘qiyotgan kitobxon ham kitobni shunchalik ixlos bilan o‘qiydi. Iboralar ma‘nosi bir so‘zga teng bo‘lgan so‘z birikmasi, gap holida keladi.

Frazema ko‘chma ma‘noli turg‘un konstruksiyadir. Masalan, zo‘raymoq (leksema) — avj olmoq (frazema), qiynalmoq (leksema) — azob chekmoq (frazema) kabi. Demak, frazema ham leksema kabi lug‘aviy birlik sanaladi, ammo o‘zining ifoda va mazmun planlaridagi qator belgilari bilan leksemadan farqlanadi.¹ So‘z birikmasi va iboralarni farqlash ham gap tahlilida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday iboralar borki, ularning tilimizda so‘z birikmasi holida ham ishlatishimiz mumkin.

Shuhrat o‘zbek adabiyotida ham she‘riy, ham nasriy, ham dramatik asarlar yozgan adibdir. Shuhratning kitobxonlar qalbidan joy olgan „Shinelli yillar daftari”, „Ishqingda yonib”, „Kavkaz daftari” kabi she‘riy, „Mehrol”, „Orzu va qasos”, „Farzand”, „So‘lmas chechaklar” kabi dostonlari, „Ona va farzand”, „Jamila”, „Raymonda” kabi balladalari, „Shinelli yillar”, „Oltin zanglamas”, „Jannat qidirganlar” kabi romanlar hamda „Besh kunlik kuyov”, „Qo‘sha qaringlar” va „Ona qizim” kabi dramalari bor. Shuhratning „Oltin zanglamas” asari urush yillari va undan keyingi mustaqillik yillari haqida yozilgan romani ham kitobxonlarning sevimli asarlari qatoridan joy olgan. Shuhrat bu romanda talaygina ibora va maqollardan foydalangan. Iboralarni uchta guruhga ajratamiz. Bulardan birinchisi shaxs faoliyati va psixikasi bilan bog‘liqligi jihatidan shakllangan frazeologizmlar, ikkinchisi hayvonlar obrazi

¹ H. Jamolxonov Hozirgi o‘zbek adabiy tili Toshkent „Talqin” - 2005

asosida shakllangan frazeologizmlar va uchinchisi din va dindorlikka bogʻliqligi jihatidan shakllangan frazeologizmlar. Yuqorida keltirilgan guruhlar boʻyicha misollar keltiramiz.

Shaxs faoliyati va psixikasi bilan bogʻliqligi jihatidan shakllangan frazeologizmlar.

Qodirning hayoli musichalarda boʻlsa ham, koʻzi qiz ketgan tomonga yoʻl chizib qoldi (8-b)

Ardoqlab oqqa koʻchirayotgan xatingga siyoh toʻkilgandek yuraging achishadi. (12-b)

Sodiq shuncha yaxshilik qilgan odamning soʻzini yerda qoldirgani botinmadi. (23-b)

Musharrafnikida esa nimadir yashiriq, nimadir sirli, nimasidir oʻziga tortib

yurakni jizillatib turardi. (42-b)

Mirsalim uni koʻzining ostiga olib, yomon niyat bilan yaxshilik qilib, qoʻshimcha dars berib, payt poylab yurganda Musharraf darkungina qiz edi. (49-b)

Mirsalim esa har duch kelganda Sodiqning qoʻltigʻiga suv purkay berib tobiga keltirib oldi. (53-b)

Koʻcha-koʻyda biror qizning tovushi unikiga oʻxshab ketsa yuragi shuv etadi, nur tezligida bir narsa bagʻrini tilib oʻtgandek boʻladi. (65-b)

Qodirning yurak yutib “men siz bilan birga boraman hammasini ochiq oydin aytib qoʻyaqolamiz” deganiga koʻnmadi. (70-b)

Sodiqning ensasi qotib, chiqib ketdi. (93-b)

Sodiqning zardasi qaynab, boshqa soʻz aytmadi. (93-b)

Din va dindorlikka bogʻliqligi jihatidan shakllangan frazeologizmlar va maqollar

Hay, jon bolam, bu nima deganingiz, yaxshi gapga ham farishta omin deydi, yomon gapga ham. (115-b)

Qaytmaganlarga qishloq aza ochdi, qora kiydi, lekin Adolat xola aza ochtirmadi, axir quruq yoʻtalishga ham kuch kerak. (134-b)

Banda qilsa malomat, xudo qilsin salomat jon Bolam. (167-b)

Shoʻrolar joningizni Jabborga berganingiz bilan minnatdor boʻlmaydi. (205-b)

Kishiga el boʻlmaydi, toʻymasa imonini sotib yeydi” - deb yurishardi.

Har kimning goʻri boshqa, toʻri boshqa. (232-b)

Xudo nasib qilsa toʻrt koʻz tugal koʻrishamiz. Qirq yil qirgʻin boʻlsa ajal yetgan oʻladi. (255-b)

Qirq yil qirgʻin boʻlsa, ajali yetgan oʻladi. (264-b)

Jonni jabborga berib, jang qilishadi-yu, baribir chekinishdi. (269-b)

Oʻlik boʻlib goʻrda, tirik boʻlib toʻrda yoʻqsan. (288-b)

Hayvonlar obrazi asosida shakllangan frazeologizmlar

oy gapga tushib ketib vaqtni ham tuya qilibmiz-ku! (67-b)

Musharraf qo‘liga zag‘chadek qo‘ndirib olibdiku, halitdan. (79-b)

Tuyaning paypog‘i, otning odami ulkan degandek. (85-b)

Tashqaridan ko‘rgan odam bu ikki do‘st orasidan qora mushuk o‘tganini payqamas edi. (98-b)

Basharamga qarang, kuyaverib-kuyaverib, it mujigan oshiqdek bo‘lib ketdim. (116-b)

Bir terida qo‘y necha semirib, necha ozadi, jon omon bo‘lsin, - dedi qaynana. (116-b)

It hidlab topmas yerda yurgan edim. (155-b)

Sodiqning tili qisq joyi ham bor: birga, bir kamerada o‘tiribdi, axir ishtoni yo‘qning tizzasi yirtiqdan kulishini qarang, diyishi, juda bo‘lmaganda, otdan tushsangiz ham, uzanggidan tushmas ekansiz, inim. (159-b)

Ular tushida sher minadi, o‘ngida mushukdan qo‘rqadi. (159-b)

Bilmadim, qaysi bir umring qisqa bo‘lgur qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan bolamga choh qazidi. (190-b)

To‘rga tushgan baliq qarmoqdan cho‘chimaydi, nimasini yashiraman. Tuhmat! (201-b)

To‘g‘ri, chivin birlashsa, filni holdan toldirarkan. (201-b)

Posilkani tumbochkada asrab bo‘lmas, “tuya qilib qo‘yuvchilar” doim topilib turardi. (211-b)

To‘s-to‘polonni ko‘rmaysizmi, sichqonning ini minga tanga bo‘lib ketdi. (232-b)

Quyondan ham oyog‘ingiz yengil ekanku?! (234-b)

Bu chiroq taftida bir vaqtlar go‘shatga tushgan qurtdek g‘imirlagan keyinchalik zamona zayli bilan uxlatib qo‘yilgan boyvachcha orzulari... (247-b)

Bir oz vaqt o‘tgach oilasini chaqirtirib oldi tuya ko‘rdingmi yoq deb to‘nini o‘zgartirib oldi fuqaro bo‘ldi. (247-b)

Bo‘ri qulog‘i ovda bo‘lib qush uyqusida yotgan Dilovarxo‘ja albatta birinchi bo‘lib payqadi. (251-b)

Shu lahzadan boshlab, itning xayolidan yog‘liq suyak ketmaganidek, Dilovarxo‘janing fikri - o‘yi Sodiqning joni bo‘lib qoldi. (278-b)

It yotish mirza turish. (285-b)

To‘s-to‘polonni ko‘rmaysizmi, sichqonning ini ming tanga bo‘lib ketdi. (298-b)

Quyondan ham oyog‘ingiz yengil ekan. (299-b)

Mirsalim kayfi tarqagan qushdek xushyor tortib, gandaraklab ketdi, o‘zini uning ko‘zidan chetga oldi. (325-b)

U hali chuchvarani xom sanab, sichqon bo‘lib, filga talanib yuribdi. (334-b)

Yana o‘sha javobni qaytarish quturgan it og‘ziga qo‘l tiqish edi. (354-b)

Tani nosog‘roq shekilli, bolasini tashlagan biyaday bo‘shashib yuribdi. (362-b)

Tag‘in podadan oldin chang chiqarib, o‘zimni o‘zim baloga qo‘ymay! (364-b)

Qiy-chuv bilan yaradorlarni tashishar edi, derazalardan ko‘rpa yostiq hovliga uchar, it egasin, mushuk bekasini tanimas edi. (382-b)

Asarni o‘qish jarayonida iboralardan mohirona foydalanilganini ko‘rib, Shuhratning mahoratiga qoyil qolasiz. Adabiyot va til bir-biri bilan chambarchas bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. H. Jamolxonov Hozirgi o‘zbek adabiy tili Toshkent „Talqin“ - 2005
2. Sh. Sariyev Adabiyot (Metodik qo‘llanma) Toshkent „Yangi kitob“ 2018
3. Sh. Rahmatullayev Hozirgi adabiy o‘zbek tili Toshkent „Universitet“ 2006